



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## **O'ZBEK ERKAKLARINING TUG'ILGAN KUN TABRIK VA TILAK NUTQLARIDA GENDER OBRAZINING LINGVISTIK VA PRAGMATIK IFODALANISHI**

**Ernazarova Nargiza Xidirovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Maqolada o'zbek erkaklarining tug'ilgan kun tabriklari lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik va sintaktik vositalar orqali gender obrazlarining shakllanishi, adresatning ijtimoiy mavqeiga ko'ra nutqiy strategiyalarning o'zgarishi yoritiladi. Natijalar tabrik nutqlarida o'zbek madaniyatiga xos gender stereotiplari va ijtimoiy ierarxiya aks etishini, bu esa gender identitetini mustahkamlashga xizmat qilishini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** gender, erkak nutqi, tug'ilgan kun tabrigi, lingvistik tahlil, pragmatik tahlil, gender stereotipi, kommunikativ akt, metafora, ijtimoiy rol, madaniy qadriyatlar.

## **ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ГЕНДЕРНОГО ОБРАЗА В ДИСКУРСЕ ИМЕНИННЫХ ПОЗДРАВЛЕНИЙ УЗБЕКСКИХ МУЖЧИН**

**Эрназарова Наргиза Хидировна**

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель

### **Аннотация**

В статье лингвопрагматически анализируются поздравления узбекских мужчин. Исследуется кодирование гендерных образов через лексико-синтаксические средства и речевые стратегии в зависимости от статуса адресата. Результаты подтверждают, что поздравления отражают культурные стереотипы и иерархию, играя ключевую роль в укреплении гендерной идентичности в узбекском обществе.

**Ключевые слова:** Гендер, мужская речь, поздравление с днем рождения, лингвистический анализ, прагматический анализ, гендерный стереотип, коммуникативный акт, метафора, социальная роль, культурные ценности.

## **LINGUO-PRAGMATIC REPRESENTATION OF GENDER IDENTITY IN THE BIRTHDAY CONGRATULATORY DISCOURSE OF UZBEK MALES**

**Ernazarova Nargiza Xidirovna**

Uzbekistan State World Languages University, Senior Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the linguistic and pragmatic aspects of Uzbek men's birthday greetings. It explores how gender images are encoded through lexical and syntactic tools based on the addressee's status. Findings reveal that these speeches reflect cultural stereotypes and social hierarchies, justifying their role in constructing and reinforcing gender identity.

**Keywords:** Gender, male speech, birthday greeting, linguistic analysis, pragmatic analysis, gender stereotype, communicative act, metaphor, social role, cultural values.

Hozirgi davrda gender konsepsiyasi zamonaviy gumanitar fanlar tizimida dolzarb ilmiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender masalasi tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va diskurs tahlili kabi yo'nalishlarda keng qamrovli tadqiqot obyektiga aylangan. Mazkur tushuncha biologik jinsdan farqli ravishda erkak va ayollarga jamiyat tomonidan yuklatiladigan ijtimoiy rollar, me'yorlar, stereotiplar va xulq-atvor modellari majmuini anglatadi. Gender umumiy nuqtai nazarga ko'ra insonlarni biologik jihatdan farqlovchi jins tushunchasidir.

Ushbu “gender” atamasi 1968-yil Kaliforniyalik olim R.Stoller tomonidan fanga kiritilgan.[3]

Pushkarevaning xulosasiga ko‘ra, gender atamasi "ayol" va "erkak" ning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarini tavsiflash uchun, ya'ni "jamiyat tomonidan ayollar va erkaklar sifatida belgilab qo'yilgan belgilar, me'yorlar, stereotiplar, rollarni tashkil etuvchi hamma narsani aniqlashda ishlatilgan." [1]

Gender lingvistikasining nazariy-metodologik asoslari Rossiyada A.P.Martinyuk, R.K.Potapova, V.V.Potapov, A.G.Kirova, A.V.Kirilina, N.L.Puskareva, Y.S.Gritsenko, M.Yu.Strijneva, M.L.Nikolaevna, Y.I.Goroshko, И.И.Халеева va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. O‘zbek tilshunosligida ham gender masalalari D.U.Ashurova, M.I.Rasulova, Sh.S.Safarov, O‘.K. Yusupov, J.A.Yoqubov, S.Akbarova, I.M.To‘xtasinov, M.K.Xalikova, M.Qurbonova, S.Boymirzayev, N.Bekmuhammedova, G.Ergasheva, A.A.Morozova, B.Yo‘ldoshev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek erkaklarining tug‘ilgan kun munosabati bilan aytiladigan tabrik nutqlari lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi

M.Y.Strizhneva " Бокыр сгера " jurnalida chop etgan maqolasiga asosan (Kirilina A. V., Tomskaya M., Plyusnina A. V., Kryuchkova T. B. va Megela K. I. larning ta’riflariga ko‘ra) erkak va ayolning yozma nutqi o‘rtasidagi farqlarni quyidagicha umumlashtiradi. Erkaklarning yozma nutqida quyidagi jihatlar aks etadi: kirish so‘zlar, mavhum otlarni va sifatlarni ko‘proq ishlatish, asliy va nisbiy sifatlarni, hissiy holatni yetkazishda yoki ob'ekt yoki hodisani baholashda salbiy ma'noga ega bo'lgan baholovchi so'zlardan ayollarga qaraganda kamroq foydalanish, o‘quvchi bilan jonli muloqotga taqlid qiluvchi sintaksis, bayonot ma'nosiga ega bo'lgan ko'p sonli kirish so'zlar, tez-tez ritorik savollarni ishlatish, gazeta va jurnalistik klişelardan foydalanish, faol va o‘timli fe'llarning ustunligi, neologizmlar, atamalar va professionalizmlardan foydalanilish, biriktiruvchi bog‘lovchilardan ko‘ra tobe bog‘lovchilar ko‘proq ishlatiladi.[2]

Mazkur tadqiqotda o‘zbek erkaklarining tug‘ilgan kun munosabati bilan aytiladigan tabrik nutqlari lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tabrik matnlari orqali erkaklik obrazining til vositalarida qanday ifodalanishi hamda unda mujassam bo‘lgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlar yoritilishi va gender xususiyatlarini tahlilini ko‘rib chiqamiz.

a) Otalarga qaratilgan tug‘ilgan kun tabrik va tilak izhorlari

“Biz uchun qadrlı bo‘lgan aziz otajon! Tug‘ilgan kuningiz muborak bo‘lsin! Sizni tavallud ayyomingiz bilan tabriklab, Sizga dunyodagi barcha eng ezgu tilaklarimizni baxshida qilamiz! Siz bizning suyangan tog‘imiz va xayotimiz tirgagisiz! Sizga mustaxkam sog‘lik, omad, baxt va xayotingiz quvonchli onlarga to‘la bo‘lishini tilab qolamiz! Barcha kunlaringiz xayrli bo‘lsin, g‘alaba nashidasi Sizga yor bo‘lsin, xonadonimiz to‘ri doimo Sizniki bo‘lib qolsin! Ayyomingiz muborak bo‘lsin!”

Bu tug‘ilgan kun tabrigi, ya’ni ijtimoiy-pragmatik kommunikativ akt. Uning asosiy maqsadi – tabrik qilinayotgan shaxsga hurmat va mehr-muhabbatni ifodalash, shuningdek, tilaklar bilan kayfiyatni ko‘tarishdir. “Biz uchun qadrlı bo‘lgan aziz otajon!” – ijtimoiy va oilaviy hurmatni, “sog‘lik, omad, baxt, quvonch” gradatsiyalangan tilaklar zanjiridir. “Siz bizning suyangan tog‘imiz va xayotimiz tirgagisiz!” – bu metafora orqali otaning oiladagi nufuzini va ishonchliligini ifodalash ko‘rsatilgan.

b) Onalarga qaratilgan tug‘ilgan kun tabrik va tilak izhorlari

“Aziz onajon! Bugungi qutlug‘ kunda Sizga ilgari aytmagan eng ezgu tilaklarimizni baxshida qilmoqchimiz! Siz bizga yoshligimizda baxsh etgan mexringiz, mexribonchiliklaringiz uchun bir umrga minnatdormiz! Baxtimizga doimo sog‘-salomat yurishingizni, chexrangizdan tabassum aslo arimasligini va kunlaringiz baxtiyor onlardan iborat bo‘lishini chin yurakdan tilab qolamiz! Tavallud kuningiz muborak bo‘lsin!”[6]

Mazkur tabrikda onaga xos nutqiy obraz til vositalari orqali mehr, g‘amxo‘rlik va hissiy

barqarorlik bilan bog'lab tasvirlanadi. "Mehr baxsh etish", "qalb", "tabassum arimasligi", "chin yurakdan" kabi birliklar ona shaxsini faoliyat yoki natija bilan emas, balki hissiy qo'llab-quvvatlovchi va parvarishlovchi shaxs sifatida ifodalaydi. Ushbu leksik birliklar o'zbek madaniyatida ayolga xos deb qaraladigan shaxslararo munosabatga yo'naltirilgan qadriyatlarni til orqali ko'rinishidir. Natijada tabrik nutqida ona obrazi mehr manbai va ruhiy tayanch sifatida namoyon bo'ladi. U ona shaxsini axloqiy-madaniy mavqeini yuksaltirishdan iborat. "Mehr" leksemasining takroriy qo'llanishi onalik konseptining markaziy semasini tashkil etadi. Erkaklar tabrigida adresat kelajakdagi harakatlar va yutuqlar bilan bog'langan bo'lsa, onaga yo'llangan tabrikda diskurs o'tmishdagi xizmatlar (tarbiya, mehr) va hozirgi ruhiy holat (sog'lik, tabassum) atrofida quriladi. Bu genderga xos vaqt yo'nalishini ko'rsatadi.

c) Turmush o'rtoqlariga qaratilgan tug'ilgan kun tabrik va tilak izhorlari

O'zbek erkaklarining onaga yo'llangan tabrigida ayol obrazi mehr va minnatdorlik markazi sifatida berilgan bo'lsa, bu tabrikda u shaxsiy baxt va ilhom manbai sifatida lingvistik jihatdan shakllanadi. Bu farq ayollikning turli munosabat kontekstlarida til orqali turlicha tasvirlanishini ko'rsatadi.

"Azizim, sen mening hayotimdagi eng yorqin yulduzsan. Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, sen bilan bo'lgan har bir daqiqa men uchun eng katta baxt!"[4]

Bunda "Eng yorqin yulduz", "hayotimdagi", "har bir daqiqa men uchun eng katta baxt" kabi birliklar orqali adresat individual qadriyat manbai sifatida ko'rsatiladi. Mazkur tabrikda adresat romantik yaqinlik doirasidagi shaxs sifatida tasvirlanadi va nutq shaxsiy hissiy munosabatni ifodalashga yo'naltirilgan. Bu yerda baholash umumiy minnatdorlik yoki parvarish g'oyasiga emas, balki juftlikka xos emotsional bog'liqlikka tayanadi. Gender nuqtai nazardan, mazkur tabrikda ayol obrazi parvarishlovchi yoki axloqiy tayanch sifatida emas, balki romantik ilhom manbai sifatida til orqali ifodalanadi. Natijada nutq ayollikni ijtimoiy vazifa bilan emas, balki shaxsiy hissiy ahamiyat bilan bog'laydi va romantik munosabatlarga xos gender tasvirini yuzaga chiqaradi.

d) Opa-singillariga qaratilgan tabrik va tilak nutqlari

Opa-singilga yo'llangan tabriklarda nutqning asosiy vazifasi tavsiflash emas, balki himoya va tilak bildirishdir; gender rollar esa qarindoshlik ierarxiyasi orqali til vositasida tartibga solinadi.

"Aziz opajon! Tug'ilgan kuningiz bilan chin qalbidan tabriklayman! Sizga uzoq umr, baxt-saodat, metinday sog'lik, farovon turmush, barcha olamshumul va ijobiy maqsadlaringizni amalga oshishini, xayotning barcha jabxalarida omad Sizga yor bo'lishini va ajoyib nurli, iqqolli kelajakning baxtli onlarini tilab qolaman! Oilamiz baxtiga doimo omon bo'ling!"[7]

Yuqoridagi tabriklarda nutq aka → opa/singil munosabatiga xos ierarxik-yaqin kommunikativ tuzilma asosida shakllangan. Erkak subyekt nutqda o'zini teng sherik yoki hukmron mavqedagi shaxs sifatida emas, balki mas'ul va qo'llab-quvvatlovchi qarindosh sifatida namoyon etadi. Shu bois tabriklarda buyruq, rag'batlantirish yoki shaxsiy da'vo unsurlari uchramaydi; nutq asosan tilak va duo shakllari bilan ifodalanadi.

e) Aka-ukalariga qaratilgan tabrik va tilaklar izhorlari

Endi aka-ukaga yo'llangan tabriklarda erkak nutqi yo'l ko'rsatish va me'yor belgilashga xizmat qilishi; erkaklik esa ijtimoiy faoliyat va axloqiy mas'uliyat bilan bog'langan holda ifodalanadi. Bu holat aka-uka munosabatida gender rollari rivojlanishga yo'naltirilgan diskurs orqali shakllanishini ko'rib o'tamiz.

"Tavallud ayyoming qutlug' bo'lsin, aziz ukajonim! Senga metinday salomatlik, omad, va baxtli xayot onlari xamroxlik qilsin! Doimo rostgo'y, sof vijdonli insonlar qatoridan joy olish va xayotning oldingi qatorlarida bo'lish baxti nasib etsin!"

Mazkur tabrikda nutq aka → uka munosabatiga xos, "rostgo'y", "sof vijdonli", "hayotning oldingi qatorlarida bo'lish" kabi birliklar ukani shaxsiy his-tuyg'udan ko'ra ijtimoiy



mezonlar va axloqiy me'yorlar asosida tasvirlaydi. Bu birliklar nutqni tilak emas, balki ijtimoiy yo'naltirish funksiyasiga yaqinlashtiradi. "Hayotning oldingi qatorlari" ifodasi hayot — maydon / musobaqa metaforasini yuzaga chiqarib, erkaklikni faol ishtirok, oldinda bo'lish va tashabbus bilan bog'laydi. Bunda erkaklik mas'uliyat, axloqiy tozalik va ijtimoiy raqobatga tayyorgarlik bilan ifodalanadi. Aka nutqda ukani himoyalangan yoki tasalli beriladigan shaxs sifatida emas, balki jamiyatda o'z o'rnini egallashi lozim bo'lgan erkak sifatida til orqali joylashtiradi.

f) Do'stlarga qaratilgan tug'ilgan kun tabrik va tilak izhorlari

Odatda, erkaklar tabriklarida adresatga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi munosabatni ustunligini ko'rish mumkin.

"Qadrdon do'stimiz! Tavallud topgan kuning qutlug' va muborak bo'lsin! Senga dorilomon xayot, to'kin-sochinlik va mustaxkam iroda xamda sog'-salomat yurish baxti nasib etsin! Bir umrga tog'ni talqon qiluvchi paxlavon, mard, jasur va abjir, shu bilan birga aqlda tengi yo'q insonlar qatorida qolishinga tilakdoshman. Omad aslo seni chetlab o'tmasin! Muborak ushbu ayyom senga qutlug' bo'lsin, aziz do'stim!"[5]

Ushbu tabrik ekspressiv nutqiy akt bo'lib, erkaklik obrazini ijobiy baholashga yo'naltirilgan. Leksik sathda "pahlavon, mard, jasur, abjir, mustahkam iroda" kabi baholovchi birliklar erkaklik konseptini kuch va qat'iyat semalari bilan bog'lab, jamiyatda erkakka xos deb qaraladigan gender stereotiplarini aks ettiradi. "Tog'ni talqon qiluvchi" birikmasi giperbolik metafora sifatida erkaklik obrazini ideallashtiruvchi funksiyada namoyon bo'ladi. Pragmatik jihatdan tabrik erkaklik identitetini ijobiy baholovchi va ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil qilingan matnlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek erkaklarining turli adresatlarga yo'llanadigan tug'ilgan kun tabriklarida lingvistik va pragmatik vositalar orqali gender obrazlarining ijtimoiy, madaniy va shaxsiy funksiyalari ifodalanadi. Shu jihatlar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Otaga yo'llangan tabriklar – ijtimoiy-pragmatik akt sifatida shakllanadi. Ular hurmat, mehr-muhabbat va oilaviy qadriyatlarni ifodalaydi. Onaga yo'llangan tabriklar – mehr, g'amxo'rlik va hissiy barqarorlikni ifodalaydi. Gender tahlilidan kelib chiqib, adresatning qadriyatlari va roli o'tmishdagi xizmatlar va hozirgi ruhiy holat bilan bog'liq tarzda tasvirlanadi, erkak nutqi esa minnatdorlik va hurmatni aks ettiradi. Turmush o'rtog'iga yo'llangan tabriklar – adresat individual qadriyat manbai va romantik ilhom sifatida tasvirlanadi. Opa-singil va aka-uka tabrikleri – qarindoshlik ierarxiyasiga va ijtimoiy mas'uliyatga asoslanib erkak nutqi mas'ul va qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi; aka-uka tabrigida esa ijtimoiy yo'naltirish, axloqiy me'yorlar va faol ishtirok tasvirlanadi. Bu holatlar o'zbek jamiyatida erkakning oilaviy va ijtimoiy vazifalari bilan bog'liq gender stereotiplarini ko'rsatadi. Do'stlarga yo'llangan tabriklarda esa erkaklik obrazini ijtimoiy faoliyat, jasorat, qat'iyat va kuch semalari orqali idealizatsiya qiladi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek erkaklarining tug'ilgan kun tabrigidagi nutqiy amallar adresatning ijtimoiy mavqei, oilaviy roli va shaxsiy ahamiyatiga qarab lingvistik va pragmatik jihatdan farqlanadi. Shu bilan, tug'ilgan kun tabrikleri o'zbek madaniy va ijtimoiy kontekstida erkaklik va ayollik obrazlarini lingvistik vositalar orqali kodlash va gender stereotiplarini mustahkamlash funksiyasini bajaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Кирилина А. В. Гендер: лингвистические аспекты (монография). – Москва: Институт языкознания РАН, 1999. – С. 5.
2. Стрижнёва М. Ю. Особенности женского стиля письма научно-популярного туристического журнала «Вокруг света» // Современный дискурс-анализ. – 2018. – Т. 2. – № 3 (20).
3. To'lanboyeva G., Roziqova G. Tilning gender xususiyatlari tadqiqi // Theoretical

aspects in the formation of pedagogical sciences: International scientific-online conference. – 2023. – B. 61-64. – DOI: 10.5281/zenodo.8191336.

4. Bilimmarkazi.uz. Tug‘ilgan kun tabriklari (Sherlar toplami). – [Elektron resurs]. URL: <https://bilimmarkazi.uz/sherlar-toplami/tugilgan-kun-tabriklari/> (murojaat sanasi: 19.02.2024).

5. Qwert.uz. Do‘stga tug‘ilgan kun uchun tabriklar matni. – [Elektron resurs]. URL: <https://qwert.uz/2020/05/06/tugilgan-kun-uchun-tabriklar-matni-do'stga/> (murojaat sanasi: 19.02.2024).

6. Qwert.uz. Onaga tug‘ilgan kun uchun tabriklar matni. – [Elektron resurs]. URL: <https://qwert.uz/2020/05/06/tugilgan-kun-uchun-tabriklar-matni-onaga/> (murojaat sanasi: 19.02.2024).

7. Qwert.uz. Opaga tug‘ilgan kun uchun tabriklar matni. – [Elektron resurs]. URL: <https://qwert.uz/2020/04/29/tugilgan-kun-uchun-tabriklar-matni-opaga/> (murojaat sanasi: 19.02.2024).